

XAGGEY

PAYG'AMBARNING

KITOBI

Kirish

Mazkur kitob miloddan oldingi 520 yilda Xudo Xaggey payg'ambar orqali yuborgan xabarlardan tashkil topgan to'plamdir. Miloddan oldingi 538 yilda Fors shohi Kurush bergan farmonga ko'ra, yahudiylar Bobildan Quddusga qaytib, Ma'badni qayta qurishga kirishadilar*. Biroq ko'p qarshiliklar sababli qayta qurish ishlari to'xtab qoladi*.

Miloddan oldingi 520 yilgacha yahudiylarning aksariyat qismi Bobildagi surgundan qaytib keladi. Biroq odamlar Xudoning uyiga e'tiborsiz bo'lib, faqat o'z uylarini qurish, shinam qilish bilan ovora bo'lishadi. Xalqning Xudoga bo'lgan bunday hurmatsizligi va itoatsizligi ko'p kulfatlarga sabab bo'ladi: osmondan shudring tushmaydi, yer hosil bermaydi, yurtda qahatchilik hukm suradi, xalq qashshoqlashadi, qilgan mehnatlari samarasiz bo'ladi.

Xaggey payg'ambar beparvo bo'lgan Yahudo xalqini Ma'badni tiklashga chaqiradi. Zero, shu orqaligina xalq Xudoga o'zining chin hurmati va e'tiborini namoyon qila olardi. Xalq Ma'badni qurishni boshlagandan keyin, Xudo ularga baraka berishni va yurtiga farovonlik ato etishni va'da qiladi.

1-BOB

Ma'badni qaytadan qurish to'g'risida Egamizning amri

¹ Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili* oltinchi oyining* birinchi kuni edi.

Egamiz Xaggey payg'ambar orqali Yahudo* hokimi Shaltiloy o'g'li Zarubabelga* va oliy ruhoni Yohuzadax o'g'li Yoshuaga quyidagi so'zlarini ayon qildi:

²⁻³ Sarvari Olam shunday demoqda: "Bu xalq: «Egamizning uyini qurish vaqtini hali kelgani yo'q», deb aytadi. ⁴ Ey Isroil xalqi, Mening uyim vayron bo'lib yotganda*, sizlar hashamatli uylarda yashashingizning vaqtimi?!" ⁵ Mana endi Sarvari Olam demoqda: "O'z ahvolingizga qarab, yaxshilab o'ylab ko'ringlar-chi! ⁶ Ko'p ekib, kam o'rasiz. Ovqat yeysiz-u, to'ymaysiz. Ichasiz, ammo chanqog'ingiz qonmaydi, ustingizga kiyasiz-u, isinolmaysiz. Kim pul ishlasa, uning puli yirtiq hamyonga tushadi."

⁷ Sarvari Olamning kalomi shudir: "O'z ahvolingizga qarab, yaxshilab o'ylab ko'ring, axir! ⁸ Tog'larga chiqib, yog'och olib tushinglar-da, Mening uyimni quringlar. Men uni ko'rib zavqlanaman, u yerda ulug'lanaman, — deydi Egamiz. — ⁹ Ko'p hosil olishni umid qilgan edingiz, mana kam oldingiz. Uyga olib kelganiningizni sochib yubordim. Nima uchun?" Sarvari Olam shunday demoqda: "Mening uyim vayron bo'lib yotgan paytda, sizlar faqat o'z uyingiz haqida o'ylaganingiz uchun shunday qildim. ¹⁰ Sizlarning dastingizdan osmondan shudring tushmadi, yer ham hosil bermadi. ¹¹ Men dalalarga, qirli joylarga qurg'oqchilik* keltirib, don, uzum sharbatli va zaytun moyini quritdim. Yerdan

chiqqan barcha hosilni yo‘q qildim, odamlar va hayvonlarni qiyinchiliklarga duchor qildim. Insonlarning o‘z qo‘llari bilan qilgan mehnatlarini puchga chiqardim.”

Xalq Xudoning buyrug‘iga bo‘ysunadi

¹² Shundan keyin Zarubabel, oliy ruhoniy Yoshua* va surgundan qaytib kelgan barcha xalq o‘zlarining Egasi Xudoga itoat qilishdi. O‘zlarining Egasi Xudo yuborgan Xaggey payg‘ambarning so‘zlariga qulqoq solishdi, chunki ular Egamizdan qo‘rqardi.

¹³ Egamizning elchisi Xaggey Uning quyidagi so‘zlarini xalqqa yetkazdi:

— Egamizning kalomi shudir: “Men sizlar bilan birgaman.”

¹⁴ Yahudo hokimi Zarubabelni, oliy ruhoniy Yoshuani va surgundan qaytib kelgan butun xalqni Egamiz ruhlantirdi. Shunda ular hammalari kelib, o‘zlarining Xudosi, Sarvari Olamning uyini tiklashni boshladilar. ¹⁵ Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili oltinchi oyining* yigirma to‘rtinchi kunida Ma’badning qayta qurilishi boshlandi.

2-BOB

Yangi Ma’badning ulug‘vorligi

¹ O‘sha yilning* yettinchi oyi*, yigirma birinchi kunida Egamiz yana xabar yuborib, quyidagi so‘zlarni Xaggey payg‘ambarga ayon qildi:

² Yahudo* hokimi Shaltiyol o‘g‘li Zarubabelga*, oliy ruhoniy Yohuzadax o‘g‘li Yoshuaga va surgundan qaytib kelgan butun xalqqa shu gaplarni yetkaz:

³ “Orangizda oldingi Ma’badning* shuhratini ko‘rganlar bormi? Hozirgi ko‘rinishi qanday? Oldingisi bilan solishtirganda bunisi arzimagan bir narsaday–ku, axir! ⁴⁻

⁵ Egamizning kalomi shudir: «Endi dadil bo‘l, ey Zarubabel! Dadil bo‘l, ey oliy ruhoniy Yoshua! Ey surgundan qaytib kelgan shu yurt ahli, endi dadil bo‘linglar!» Sarvari Olam shunday demoqda: «Mening Ruhim hali ham sizlarning orangizda, qo‘rwmanglar. Ishga kirishinglar, chunki Misrdan chiqqaniningizda sizlarga bergen va’damga binoan Men sizlar bilan birgaman.»

⁶ Axir, Sarvari Olamning kalomi shudir: «Birpasdan keyin yana yero osmonni, dengiz va quruqlikni larzaga solaman. ⁷ Barcha xalqlarni titrataman, ularning xazinasi shu yerga keltiriladi.» Sarvari Olam demoqda: «O‘sanda Men mana shu Ma’badni hashamat bilan boy qilaman.» ⁸ Sarvari Olamning kalomi shudir: «Kumush Meniki, oltin ham Menikidir.» ⁹ Sarvari Olam aytmoqda: «Bu Ma’badning keyingi shuhrati oldingisidan ham ulug‘roq bo‘ladi.» Sarvari Olamning kalomi shudir: «Mana shu yerga tinchlik ato qilaman.»

Itoatkorlikdan kelgan baraka

¹⁰ Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili*, to‘qqizinchi oyning* yigirma to‘rtinchi kunida Xaggey payg‘ambar orqali Egamizning quyidagi so‘zları ayon bo‘ldi. ¹¹ Xaggey ruhoniylarga dedi:

— Sarvari Olam shunday aytmoqda: “Ruhoniylardan qonun bo‘yicha quyidagi holatlarni ajrim qilishni so‘ra: ¹² agar birortasi kiyimining etagida qurbanlikdan olingan muqaddas go‘shtni olib ketayotgan bo‘lsa, o‘sha kiyimning etagi bilan non, sho‘rva, sharob, zaytun moyi yoki boshqa yeguliklarga tegib ketsa, o‘sha

narsalar ham muqaddas hisoblanadimi?”

Ruhoniylar Xaggeyga:

— Yo‘q*, — deb javob berdilar.

¹³ Xaggey yana so‘radi:

— Agar birortasi inson jasadiga tekkani uchun harom bo‘lsa-yu, yuqorida aytib o‘tilgan yeguliklardan biriga tegsa, o‘sha yeguliklar harom hisoblanadimi?

Ruhoniylar:

— Ha*, — deb javob berdilar.

¹⁴ Shunda Xaggey dedi:

— Egamizning kalomi shudir: “Mana bu odamlar ham, bu xalq ham oldimda xuddi shundaydir*. Ular qilgan ishlarning hammasi, ular keltirgan har bir nazr ham haromdir. ¹⁵ Endi sizga nima bo‘lgani haqida o‘ylab ko‘ring. Mening Ma’badimni qayta qurishni boshlamasingizdan oldin* nimalar bo‘lgani haqida o‘ylab ko‘ring. ¹⁶ 20 chora don olaman deb, xirmonga borganingizda, u yerda faqat 10 chora don bo‘lardi. Xumdan 50 ko‘za sharob olaman deb, borganingizda esa faqat 20 ko‘za sharob topardingiz.” ¹⁷ Egamiz demoqda: “Mehnatingizning barcha samarasini yo‘q qilay deb garmesl*, shira va do‘l yubordim. Shunda ham Menga qaytishni rad qildingiz. ¹⁸⁻¹⁹ Ammo bugun*, to‘qqizinchi oyning yigirma to‘rtinchi kunidan boshlab, sizlarga nima bo‘lishiga e’tibor beringlar.

Ma’badimning poydevori yotqizilganiga ancha bo‘ldi*. O’shandan beri, ekkan urug‘laringiz deyarli hosil bermas edi, toklaringiz, anjirlaringiz, anorlaringiz va zaytun daraxtlaringizning hosili bebaraka edi. Ammo bugundan boshlab, Men sizlarga baraka beraman.”

Egamizning Zarubabelga bergen va’dasi

²⁰ O‘sha kuni*, oyning yigirma to‘rtinchi kunida Egamiz yana xabar yuborib, quyidagi so‘zlarni Xaggey payg‘ambarga ayon qildi:

²¹ Yahudo hokimi Zarubabelga ayt: “Osmon va yerni larzaga solaman.

²² Shohliklarning taxtlarini ag‘daraman, xalqlarning shohliklariga barham beraman. Jang aravalari va ularning ustidagilarni ag‘daraman. Otlar, chavandozlar yiqiladi, hamma bir-birining qilichidan halok bo‘ladi.

²³ Egamizning kalomi shudir: «Ey qulim Shaltiyol o‘g‘li Zarubabel, o‘sha kuni, — demoqda Sarvari Olam, — seni O‘z muhr uzugimday qilaman*, chunki Men seni tanlaganman.» Sarvari Olamning kalomi shudir.”

IZOHLAR

...yahudiylar Bobildan Quddusga qaytib, Ma'badni qayta qurishga kirishadilar — Ezra 1:1-11, 3:7-13 ga qarang.

...qayta qurish ishlari to'xtab qoladi — Ezra 4:1-5 ga qarang.

1:1 *Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili* — miloddan oldingi 520 yil. Doro miloddan oldingi 522-486 yillarda Fors shohligida hukmronlik qilgan.

1:1 *oltinchi oy* — ibroniy kalendarining Elul oyi nazarda tutilgan. Hozirgi calendarga ko'ra, bu oy taxminan avgustning o'rtaidan boshlanadi.

1:1 *Yahudo* — o'sha davrda Yahudo yurti Fors shohligining hukmronligi ostida bo'lган. Yahudo yurti hududiga faqat Quddus va uning atrofidagi yerlar kirardi. Yahudo shohlari hukmronlik qilgan davrda esa bu yurtning hududi ancha katta edi.

1:1 *Shaltiyol o'g'li Zarubabel* — 1 Solnomalar 3:17-19 ga ko'ra, Zarubabel Shaltiyolning ukasi Podiyoning o'g'li edi. Shaltiyol va Podiyo surgun qilingan Yahudo shohi Yohayxinning o'g'llari bo'lib, Shaltiyol to'ng'ich farzand edi (4 Shohlar 24:8-17 ga qarang). Shaltiyolning o'g'li bo'lmaniga ikki taxmin mavjud: u befarzand edi yoki farzandlari bo'lган-u, ammo hammasi halok bo'lган. Sababi nima bo'lishidan qat'iy nazar, shoh sulolası Podiyo orqali davom etgan. Matndagi "Shaltiyol o'g'li" iborasi Zarubabel shoh Yohayxinning haqqoniy taxt vorisi ekanligini ko'rsatadi.

1:4 ...*Mening uyim vayron bo'lib yotganda...* — Ma'bad Bobilliklar tomonidan miloddan oldingi 586 yilda vayron qilingan edi (4 Shohlar 25:1-21 ga qarang). Bobilda surgunda bo'lган yahudiylarning birinchi guruhi miloddan oldingi 538 yilda Quddusga qaytib, Ma'badni qayta qurishni boshlagan edi (Ezra 1:1-11 ga qarang). Miloddan oldingi 536 yilda Ma'badning poydevori bitgan edi. Ammo Ma'badning qayta qurilishi ko'p qarshiliklar tufayli miloddan oldingi 520 yilgacha to'xtab qolgan edi (Ezra 3:7-4:5 ga qarang).

1:11 *qurg'oqchilik* — ibroniychada *qurg'oqchilik* va *vayron* so'zlari o'zaro ohangdosh. Bu so'z Ma'badning ahvolini tasvirlaydi (shu bobning 4, 9-oyatlariga qarang).

1:12 ...*Zarubabel, oliv ruhoniy Joshua...* — ibroniycha matnda ...*Shaltiyol o'g'li Zarubabel, oliv ruhoniy Yohuzadax o'g'li Joshua....*

1:15 *Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili oltinchi oyi* — shu bobning 1-oyatiga va o'sha oyatning birinchi va ikkinchi izohlariga qarang.

2:1 *O'sha yil* — 1:1 ga va o'sha oyatning birinchi izohiga qarang.

2:1 *yettinchi oy* — ibroniy kalendarining Tishri oyi nazarda tutilgan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi calendarga ko'ra, bu oy taxminan sentabrning o'rtaidan boshlanadi.

2:2 *Yahudo* — 1:1 ning uchinchi izohiga qarang.

2:2 *Shaltiyol o'g'li Zarubabel* — 1:1 ning oxirgi izohiga qarang.

2:3 *oldingi Ma'bad* — 1:4 izohiga qarang.

2:10 *Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili* — miloddan oldingi 520 yil (1:1 ga va o'sha

oyatning birinchi izohiga qarang).

2:10 *to'qqizinchi oy* — ibroniy kalendarining Xislav oyi nazarda tutilgan. Hozirgi calendarga ko'ra, bu oy taxminan noyabrning o'rtaidan boshlanadi.

2:12 *Yo'q* — Tavrotga ko'ra, muqaddas go'shtga tekkan kiyim ham muqaddas bo'lardi (Levilar 6:27 ga qarang). Ammo bunday kiyimga tekkan narsa muqaddas bo'lib qolmasdi, chunki muqaddaslik birin-ketin boshqa narsalarga o'tib ketmaydi.

2:13 *Ha* — Tavrotda ko'ra, harom narsaga tekkan odam harom bo'lardi. O'sha odam tekkan har qanday boshqa narsa ham harom hisoblanadi (Sahroda 19:11-13, 22 ga qarang). Muqaddaslikdan farqli ravishda (shu bobning 12-oyati izohiga qarang), haromlik birin-ketin boshqa narsalarga o'tib ketaverardi.

2:14 ...*Mana bu odamlar ham, bu xalq ham oldimda xuddi shundaydir* — shu bobdagi 12-14-oyatlarning ma'nosi quyidagicha: xalq o'zlarini o'sha muqaddas kiyimday hisoblardilar (shu bobning 12-oyatiga va o'sha oyatning izohiga qarang). Chunki ular Egamiz bilan bo'lgan munosabatlari orqali muqaddas qilingan edilar (Chiqish 19:3-6 ga qarang). Ular, biz Xudoning aziz xalqi bo'lganimiz uchun, Xudo bizning yurtimizga alohida baraka beradi, deb o'ylardilar. Ammo Xaggey xalqqa aslida vaziyat qanday ekanligini tushuntiradi. Xaggeyning ta'kidlashicha, Ma'badning vayronalari harom murdaday edi (shu bobning 13-oyatiga va o'sha oyatning izohiga qarang). Xalq Quddusdagi qurbongohda qurbanliklar keltirsa ham (Ezra 3:1-6 ga qarang), ular Ma'badga e'tiborsizliklari oqibatida harom bo'lgan edilar. Xudo yurtni la'natlashiga ana shular sabab bo'lgan edi (1:3-11 ga qarang). Xaggey xalqqa tanbeh berib, ularni Ma'badni qayta qurishga da'vat qiladi.

2:15 *Mening Ma'badimni qayta qurishni boshlamasingizdan oldin...* — miloddan oldingi 536-520 yillar nazarda tutilgan. Shu yillarda Ma'badni qayta qurish bo'yicha hech qanday ish qilinmagan edi (1:4 izohiga qarang).

2:17 *garmsel* — hosilga katta ziyon keltiradigan issiq shamol.

2:18-19 *bugun* — shu bobning 10-oyatiga qarang.

2:18-19 *Ma'badimning poydevori yotqizilganiga ancha bo'ldi* — o'n olti yil oldin, ya'ni miloddan oldingi 536 yil nazarda tutilgan (1:4 izohiga qarang).

2:20 *O'sha kuni* — shu bobning 10-oyatiga qarang.

2:23 ...*seni O'z muhr uzugimday qilaman...* — muhr uzugi Xudo tomonidan shohga berilgan hokimiyat timsoli edi (to'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagи MUHR so'ziga qarang). Xudo Dovudga, sening nasling to abad Isroil taxtida o'tiradi, deb va'da bergen edi (2 Shohlar 7:16 ga qarang). Ammo Dovud naslidan bo'lgan shoh Yohayixin qilgan gunohlari uchun Xudo tomonidan rad etilib, jazolangan (4 Shohlar 24:8-17 ga qarang). Shu bois Yohayixin Xudo ishlatmaydigan muhr uzugiday bo'lib qolgan edi (Yeremiyo 22:24-30 ga qarang). Shunga qaramay, Xudo Dovudga bergen va'dasiga sodiq qolib, bu oyatda, Dovud naslidan bo'lgan Zarubabelga, seni muhr uzugimday qilaman, deb aytgan. Dovud sulolasiga Yohayxinning haqqoniyl taxt vorisi bo'lgan Zarubabel orqali davom etgan (1:1 ning oxirgi izohiga qarang).